

O'rinov Shamshod Komilovich
Buxoro davlat universiteti
Musiqqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası
o'qituvchisi

Qosimova Nilufar
Buxoro davlat universiteti
talabasi

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston madaniyat markazlari faoliyati, ularni boshqarish va to'garak rahbarlarining vazifalari haqida so'z boradi. Lavozim yo'riqnomalari ilmiy-metodik markaz tomonidan ishlab chiqilib, madaniyat vaziri tomonidan tasdiqlanishi ta'kidlanadi. Markaz direktorlari nizom asosida ishlaydi, to'garak rahbarlari esa yoshlarni jalb qilish, hudud ehtiyojlarini o'rganish va hisobot yuritish bilan shug'ullanadi. Respublikadagi madaniyat markazlarida turli yo'nalishlarda mashg'ulotlar olib boriladi.

Kalit so'zlar: Madaniyat markazlari, lavozim yo'riqnomalari, markaz direktori, to'garak rahbari, yoshlarni jalb qilish, ijtimoiy ehtiyojlar, ish rejasi, hisobot, Madaniyat vazirligi.

ПРОБЛЕМЫ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА

Аннотация. В статье рассматривается деятельность культурных центров Узбекистана, их управление и обязанности руководителей клубов. Подчеркивается, что должностные инструкции разрабатываются научно-методическим центром и утверждаются министром культуры. Директора центров работают на основе устава, а руководители групп занимаются привлечением молодежи, изучением потребностей региона и составлением отчетов. Обучение по различным направлениям проводится в культурных центрах республики.

Ключевые слова: Культурные центры, должностные инструкции, директор центра, руководитель клуба, вовлечение молодежи, социальные потребности, план работы, отчет, Министерство культуры.

PROBLEMS OF THE SYSTEM OF TRAINING PERSONNEL IN THE FIELD OF CULTURE AND ART

Annotation. This article discusses the activities of cultural centers of Uzbekistan, their management and the responsibilities of the leaders of the circles. It is noted that job descriptions are developed by the scientific and methodological center and approved by the Minister of Culture. Center directors work on the basis of the charter, while circle leaders are engaged in attracting young people, studying the needs of the region and keeping reports. Training in various areas is carried out in cultural centers of the republic.

Key words: Cultural centers, job descriptions, center director, club leader, youth involvement, social needs, work plan, report, Ministry of Culture.

Madaniyat markazlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning ham lavozim yo'riqnomalari Madaniyat vazirligi tasarrufidagi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi ishlab chiqilib, madaniyat vazirligiga taqdim etiladi hamda madaniyat vaziri tomonidan tasdiqlanadi. Bugungi kunda respublikamizda faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlarida markaz direktorlari eng avvalo markazning faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 martdagi 264-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida olib boradi.

To'garak rahbari – madaniyat markazlarida to'garak rahbari o'zi tashkil etishi lozim bo'lgan to'garakga o'quvchi yoshlarini keng jalb qilishi, bunda hudud ijtimoiy qatlamini o'rganishi, ularning ehtiyojlari nimadan iborat ekanligini inobatga olib faoliyatni tashkil etadi. Shuningdek, to'garak rahbari o'zi tashkil etgan to'garakga kelgusida ish faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida ish rejalarini ishlab chiqib, oylik, yarim-yillik hamda-yillik hisobotlarni yuritadi hamda nazorat qiluvchi madaniyat bo'limining mas'ul xodimi badiiy rahbarga taqdim etib boradi.

Madaniyat markazining asosiy sohalarini yorituvchi ish hujjatlariga:

- metodik qo'llanmalar stendi;
- madaniyat markazining oylik,-yillik ish rejaları papkasi;
- madaniy va ma'rifatga bag'ishlangan tadbirlar ma'lumoti;

- yozma va statistik hisobot namunalari;
- turli mavzularda o'qiladigan ma'ruzalar, suhbatlar va davra suhbatlarining mavzular jamlamasi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, mafkura va madaniyat masalalariga oid chiqargan qonunlari, qarorlari va farmonlari papkasi;
- mavzuli kechalar, uchrashuvlar, savol-javob kechalari, milliy urf-odat va marosimlar, turli udumlar va an'analarning ssenariylari to'plami;
- turli ommaviy tadbirlarning afishalar, e'lonlar, taklifnomalar nusxalari jamlamasi;
- ko'rik-tanlov, bellashuv va festivallar nizomlari jamlamasi;
- adabiyot, san'at, madaniyat va boshqa jurnal hamda ro'znomalarda bosilgan maqolalar nusxasi bosilgan jamlanmalar papkasi;
- badiiy havaskorlik to'garaklari va jamoalari faoliyatini yorituvchi fotoalbom;
- shahar madaniyat muassasalari, madaniy-ma'rifiy ishlar xodimlari, o'garaklar, jamoalar, uyushmalar faoliyatiga bag'ishlangan ma'lumotlar;
- shahar va viloyat miqyosida o'tkazilgan yirik tadbirlar ma'lumotnomalari;
- markaz xodimlarining lavozim yo'riqnomalari papkasi;
- madaniyat muassasalarini turli me'yoriy huquqiy hujjatlar papkasi saqlanishi shart.

Madaniyat markazlarining moddiy jihatdan barqarorlashtirish ular tomonidan tashkil etilgan pullik xizmatlarning saviyasiga bog'liq. Bugungi kunda madaniyat markazlarida deyarli pullik to'garaklar tashkil etilmagan. Og'riqli bo'lsa ham aytish joizki, bepul to'garaklarga ham yoshlarni jalb qilish sust holatda. Bunday holatlarda sabab madaniyat markazi rahbari tomonidan yangi innovatsion g'oyalar, ishlanmalar, takliflarning yo'qligi, tashabbuslarning hatto o'ylab ko'rilmaganligi sabab bo'lmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Har bir inson har kun qiladigan ishini xuddi birinchi marta qilayotgandek qilishi kerak. Shundagina ishda rivojlanish bo'ladi" deganlaridek, markaz xodimlari o'z funksiyalarini bajarishda xorijiy modellarga asosan amalga oshirishsa natija yuqori bo'ladi.

Madaniyat vazirligining bir tarmog'i sifatida faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlari bugungi kunda jadal sur'atlar bilan moddiy texnika bazasi ta'mirlanmoqda. Ularda ijodiy muhit rivojlantirilmoqda. Ushbu berilayotgan imkoniyat, yaratilayotgan sharoitlardan oqilona foydalangan holda ishni tashkil etish har bir soha xodimi oldida turgan asosiy vazifa sanaladi.

Xalqimiz bayram tantanani sevuvchidir. Har bir bayramda hoh u siyosiy, hoh u milliy, hoh u turizm yoki ijtimoiy madaniy tadbir bo'lsin, barchasida milliy urfodatlarimiz, qadriyatlarimizni tarannum etuvchi folklor jamoalarimiz ishtiroki ta'minlanadi. Buning zahirida ham asosiy ma'no o'zbek xalqi uzoq-yillik tarixga ega ekanligi, qadriyatlar uzoq davr mobaynida vaqtlar, zamonlar osha yetib kelayotganligi, hamda kelajakda ham bunday an'ana davom etishini tarannum etishdan iboratdir. Ana shunday milliy qariyatlar-u an'analarni izlab topish, uni asrab avaylash, belgilangan tartibda ro'yxatga olish, kerak bo'lsa, YUNESKOning umumjahon ro'yxatiga kiritishda asosiy va birinchi omil bu madaniyat markazlari faoliyati sanaladi. Aytib o'tish joizki, bugungi kunda "Lazgi" raqsi, "Askiya san'ati" ana shunday ro'yxatlar qatorida turganligi soha mutaxassislarining say harakatlari desak mubolag'a bo'lmaydi.

Milliy o'yinlarimiz, milliy kuy va qo'shiqlarimiz bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotmoqda. Bu esa, milliyligimiz uchun fojia sanaladi. Bunga bir qancha omillarni ko'rsatish mumkin:

- G'arb madaniyatining kirib kelishi;
- Axborot – IT texnologiyalari asrida yashayotganligimiz.

Qolaversa, o'tish davri talablaridan kelib chiqib, barcha jabhalarda boshqaruvni yanada rivojlantirish, takomillashtirish va qayta isloh qilish choralari ko'rilgani kabi madaniyat va san'at sohasida ham zamonaviy boshqaruvchilarni-menejrlarni tayyorlash zaruriyati o'ta dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, san'at va madaniyat sohasiga davlat tomonidan moliyaviy kōmakni kuchaytirish, ta'lim sifatini yaxshilash, ish bilan ta'minlash va rag'batlantirish tizimini yaxshilash, malakali mutaxassislarni tayyorlash va xalqaro tajribalarni o'zlashtirish, jamiyatda san'at va madaniyatning o'rnini va ahamiyatini oshirish bōyicha keng targ'ibot ishlarini olib borish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilsa, madaniyat va san'at sohasi uchun malakali kadrlar yetishtirish tizimi takomillashadi va ijodiy soha rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haydarov A. "Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari" 8-bet.
2. O'rinov K. Sh. "Madaniyat markazlari ishi" 6-7 bet.
3. O'rinov K. Sh. "Madaniyat markazlari ishi" 22-bet.

4. O'rinov K. Sh. "Madaniyat markazlari ishi" 24-bet.
5. Urinov, Sh K. "THE MAIN CRITERIA OF CULTURAL CENTERS IN THE FORMATION OF CREATIVE ABILITY." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 3.5 (2023): 52-59.
6. Shamshod, O'RINOV, and Saodat SADULLAYEVA. "IJODKOR SHAXSLAR VA ISTE'DODLARNI YUZAGA CHIQARISH SHAKL VA USULLARI." *Journal of Culture and Art* 2.3 (2024): 81-86.
7. O'rinov, SH K., and E. Sultonmurodova. "MENEJERNING MADANIYAT SOHASIDAGI KASBIY MALAKASI, USLUBLARI VA REJALASHTIRISH." *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN* 1.4 (2023): 225-230.